


A decorative border with a repeating geometric pattern of interlocking lines forming star-like shapes, surrounding the central text area.

AZAMAT MUXTAROV

**YANGI O'ZBEKISTON
TARAQQIYOT STRATEGIYASINING
MA'NAViy-G'OYAViy ASOSLARI**



32c(c52)
M-92


O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM,
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

AZAMAT MUXTAROV

**YANGI O'ZBEKISTON TARAQQIYOT
STRATEGIYASINING MA'NAViy-
G'OYAVIY ASOSLARI**

(MONOGRAFIYA)



TOSHKENT – 2023

UO'K: 32.019.5(575.1)
KBK 66.33(50')
M 50

**A. Muxtarov. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasining ma'naviy-
M 50 g'oyaviy asoslari. (Monografiya). –T.: «Innovatsion rivojlanish nashriyot-
matbaa uyi», 2023, 172 bet.**

ISBN 978-9910-01-059-0

Yangi O'zbekistonni va Uchinchi Renessans poydevorini barpo etish borasida amalga oshirilayotgan tub o'zgarish va islohotlarning maqsadi, mazmun-mohiyati hamda ustuvor yo'nalishlari, mamlakatimizning zamonaviy demokratik qiyofasi qanday yaratilgani, davlatimizni yangi rivojlanish bosqichiga ko'tarish uchun belgilab olingan strategik yo'l, milliy taraqqiyotimiz istiqbollari haqida atroflicha fikr yuritiladi.

2023-yil 9-iyulda bo'lib o'tgan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovida xalqimiz faol ishtirok etib, o'zining yuksak siyosiy-huquqiy ongi va madaniyatini namoyon etdi. Saylov natijalari mamlakatimizning mustaqil, suveren rivojlanish va demokratik islohotlar yo'lidan dadil ilgari borayotgani, Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi el-yurtimiz tomonidan keng qo'llab-quvvatlanayotganini yana bir bor tasdiqladi.

Yangi O'zbekiston – barchamizning ezgu orzumiz, mehnatkash, tinchliksevar xalqimizning orzusi. Unda el-yurtimizning azaliy umid-niyatlari, yuksalish sari intilishlari o'ziga xos tarzda aks etmoqda.

Yangi O'zbekiston orzusi ham, jahondagi milliy taraqqiyot g'oyalari o'zida jamlagan boshqa ijtimoiy hodisalar kabi, asrlar davomida shakllanib va sayqallanib kelmoqda.

Bu orzuda mujassam bo'lgan xalqimizning istagi, xohish-irodasi insonparvar va taraqqiyparvar g'oyalarda o'z ifodasini topganiga qadim tariximiz guvoh. Davrlar nafasi va xalqning ehtiyoj hamda manfaatlari, intilish va orzu-havaslariga monand ravishda u goh ezgulik va adolat, goh qudratli davlat va adolatli shoh, goh komil inson va ma'rifatli jamiyat bilan bog'liq olijanob g'oyalarda namoyon bo'lgani ma'lum.

UO'K: 32.019.5(575.1)
KBK 66.33(50')

Mas'ul muharrir:

I. Saifnazarov – falsafa fanlari doktori, professor.

Taqrizchilar:

B. Aliyev – falsafa fanlari doktori, professor;

O'. Tilabov – falsafa fanlari doktori, professor.

Mazkur monografiya Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti ilmiy Kengashining 2023-yil 4-iyuldagi 11- sonli qaroriga asosan chop etildi.

ISBN 978-9910-01-059-0

© «Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi», 2023.

KIRISH

“Ijtimoiy davlat” tushunchasi “Inson qadri” tushunchasi bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, ushbu g‘oyaning tub negizida, avvalo, inson qadrini ulug‘lash, aholiga xizmat qilishdek olijanob maqsad yotadi. Ijtimoiy davlat tushunchasi har bir inson uchun ijtimoiy tenglik va adolat tamoyillari asosida munosib yashash sharoitini yaratish masalalarini qamrab oladi. Ijtimoiy davlat kishilar orasida yuzaga keladigan ijtimoiy tafovutlarni kamaytirish, muhtojlarga yordam ko‘rsatish hamda inson manfaatlarini ko‘zlovchi islohotlarni amalga oshiradigan va bu borada samarali siyosat olib boradigan davlat modelidir.


Ijtimoiy davlat bu, eng avvalo, inson salohiyatini ro‘yobga chiqarish uchun keng imkoniyatlar, odamlar munosib hayot kechirishiga zarur sharoitlar yaratish, kambag‘allikni qisqartirish, demakdir!

Shavkat Mirziyoyev

Ijtimoiy davlat o‘z siyosatida ijtimoiy adolat tamoyillaridan kelib chiqib, faoliyat yuritadi. Asosiy maqsad – jamiyatda yaratilayotgan moddiy va ma’naviy boyliklarni ijtimoiy adolat tamoyili asosida qayta taqsimlashdan iboratdir. Bunda har bir fuqaroning maishiy turmush tarzi holatini sifat jihatdan yuqori darajaga olib chiqish, aholining turmush sharoiti va sifati jihatdan tabaqalanishiga, ya’ni ular o‘rtasidagi yashash uchun ketadigan sarf-xarajatlar bo‘yicha farqlarning kattalashib ketishiga yo‘l qo‘ymaslik va aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qismiga davlat tomonidan kafolatlar tizimi orqali yordam ko‘rsatiladi. Boshqacha aytadigan bo‘lsak, maqsad yaratilgan ne’matlardan ijtimoiy kafolatlar orqali hamma bahramand bo‘lishini ta’minlashdan iborat. Shu boisdan ham Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev bu haqda shunday degan edi: “Eng rivojlangan demokratik mamlakatlar tajribasidan o‘tgan

muhim ijtimoiy fenomen, ya'ni "Davlat organlari – xalqqa xizmat qilishning samarali vositasi" degan tamoyilning bugungi hayotimiz, islohotlar jarayonidagi o'rni va ahamiyatini yaqqol ko'rsatadi".¹

"Ijtimoiy davlat har bir inson uchun farovon turmush darajasi, xususan, sifatli ta'lim, kafolatli tibbiy xizmat, munosib mehnat sharoiti va adolatli ish haqi, pensiya va nafaqalar, ijtimoiy yordam va xizmatlar tizimi yaratilgan, uy-joyli bo'lish sharoiti mavjud bo'lgan, ijtimoiy tafovutlar yumshatilgan, muvozanatlashgan, hech bir fuqaro o'z muammolari bilan yolg'iz qolmaydigan adolatli davlatdir".



Ijtimoiy davlatning belgilari

Ijtimoiy davlat tor ma'noda o'z faoliyatida aholiga nafaqalar to'lashni, jamiyatga xizmat ko'rsatishni amalga oshiradi va uy-joy bilan ta'minlash bilan bog'liq masalalarni hal qiladi. Keng ma'noda nafaqat aholini bevosita qo'llab-quvvatlashga qaratilgan sezilarli darajada ko'psonli dasturlarni, balki iqtisodiyotni boshqarish va tashkil etishga qaratilgan chora-tadbirlarni, shu jumladan, bandlik va u bilan bog'liq masalalarni hamda kompleks makroiqtisodiy boshqaruvni amalga oshiradi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi. Tarixga nazar tashlaydigan bo'lsak, "ijtimoiy davlat" tushunchasi ilk bor 1850-yilda Lorens fon Shteyn tomonidan qo'llanilgan. U davlatning vazifasi ijtimoiy tenglik va shaxsiy erkinlikni o'rnatish, quyi va kam ta'minlangan tabaqalarni boylar va qudratlilar darajasiga ko'tarishdan iborat, deb hisoblagan.²

¹ Mirziyoyev M. Yangi O'zbekiston strategiyasi.- T.: O'zbekiston, 2021.-81-bet.

² <https://bigenc.ru/c/shtein-lorents-fon-ff62a3>

Milliy davlatchiligimiz tarixini o'rganganimizda ham "ijtimoiy davlat" tushunchasi shunga o'xshash nomlarda ko'plab uchrashiga guvoh bo'lamiz. Masalan, IX–X asrlarda yashab ijod qilgan Abu Nasr Forobiyning "Fozil odamlar shahri" asarida fozil shahar haqida bildirilgan fikrlar aynan "ijtimoiy davlat" tamoyilining mazmun-mohiyati hisoblanadi.³ Shunga o'xshash fikrlarni Nizomiy Ganjaviy, Sa'diy Sheroziy, Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy, Ahmad Donish kabi buyuk ajdodlarimiz asarlarida ham uchratish mumkin.

Nazarimizda, buyuk bobolarimiz orzu qilgan va o'z asarlarida keltirgan "fozil shahar" ham aynan shu "ijtimoiy davlat" tushunchasida o'z aksini topadi. Globallashuv jarayoni va bozor iqtisodiyoti shiddat bilan rivojlanayotgan davrda olimlar ijtimoiy davlatning o'ziga xos xususiyatlari mavjud ekanini ta'kidlaydi va Lorens fon Shteyndan farqli ravishda ushbu jihatlarga quyidagilarni kiritadi:

- aholining daromadlari va boyliklarini yirik mulkdorlarga daxl qilmasdan qayta taqsimlash imkonini beruvchi mamlakat iqtisodiy rivojlanishining yuqori darajasi;

- ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyoti;
- ko'p tarmoqli va aralash iqtisodiyot;
- fuqarolik jamiyatini shakllantirish;
- davlat tomonidan turli ijtimoiy dasturlarni ishlab chiqish;
- davlatning har bir inson uchun munosib turmush sharoiti, ijtimoiy ta'minot va shaxs sifatida o'zini o'zi anglash yo'lida teng boshlang'ich sharoitlarni ta'minlash maqsadlarini tasdiqlash;

- fuqarolar oldidagi ijtimoiy javobgarlik;
- sug'urta ijtimoiy to'lovlarining rivojlangan tizimi va budjetni tashkil etuvchi soliqlarning yuqori darajasi, ijtimoiy sohaga to'lovlarning yuqori miqdori;

- aholining barcha guruhlari uchun xizmat ko'rsatish va ijtimoiy xizmatlarning rivojlangan tizimi;

³ https://kitobxon.com/uz/kitob/fozil_odamlar_shahri-1

- budget ijtimoiy to'lovlarining mavjudligi;
- ijtimoiy himoya, ijtimoiy ta'minot va bandlik davlat tizimlarining mavjudligi;
- jamiyatning barcha muhtoj a'zolarini istisnosiz ijtimoiy qo'llab-quvvatlash tizimi mavjudligi;
- fuqarolarning farovonlik darajasi uchun javobgarlikni davlat o'z zimmasiga olishi.

Hozirgi zamon tajribasiga ko'ra, Yevropa mamlakatlarida ijtimoiy davlat g'oyasi turli normativ-huquqiy hujjatlar bilan mustahkamlangan. Xususan, Germaniyada uning ijtimoiy davlat ekani Konstitutsiya darajasida belgilangan. Shuningdek, ijtimoiy davlatning Skandinaviya va kontinental modellari ham mavjud bo'lib, bunda davlatlar o'z fuqarolarining ijtimoiy farovonligi, ta'lim, sog'liqni saqlash sohalariga, bolalar va yoshlarga, keksalarga ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish uchun mas'ul bo'ladi.

Ijtimoiy davlatning o'ziga xos funksiyalari mavjud bo'lib, olimlarning aksariyati ularning asosiylari sifatida quyidagilarni ko'rsatadi:

- ✓ aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarini qo'llab-quvvatlash;
- ✓ korrupsiya, qashshoqlik va ishsizlikka qarshi kurash;
- ✓ yosh tadbirkorlarga yordam;
- ✓ aholi bandligi va daromadlari doimiy o'sishini ta'minlash;
- ✓ jamiyatning barcha a'zolarini ijtimoiy sug'urta bilan ta'minlash;
- ✓ ta'lim, sog'liqni saqlash va ma'naviy-madaniy rivojlanishning qulayligini ta'minlash;
- ✓ ehtiyojmand shaxslarni moddiy qo'llab-quvvatlash va ijtimoiy himoya qilish;
- ✓ jamiyatdagi ijtimoiy va iqtisodiy tengsizlikni kamaytirish, imtiyozlarni qayta taqsimlash orqali munosib turmush sharoitlarini yaratish;
- ✓ ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish.

Umuman olganda, ijtimoiy davlatda mehnatga layoqatli har bir insonning bandligi ta'minlanadi. Uning munosib hayot kechirishi uchun yetarli miqdordagi ish haqi belgilanadi, ishchi uchun xavfsiz mehnat sharoitlari yaratiladi, ishsizlikdan himoyalash, sifatli ta'lim, malakali tibbiy xizmat olish huquqlari real amalga oshiriladi. Bolalar, ayollar, keksalar, nogironligi bo'lgan shaxslar, migrantlar va ularning oila a'zolari har tomonlama qo'llab-quvvatlanadi. Mutaxassislar tomonidan xorijiy davlatlarning ijtimoiy siyosatining tahlili natijasida ijtimoiy davlatning uchta modeli Skandinaviya, Kontinental, Amerika-Buyuk Britaniya modellari ajratiladi.

Birinchidan, Shvetsiya, Finlyandiya, Daniya, Norvegiya davlatlari Skandinaviya modelini o'zida namoyon qiladi. Bu mamlakatlarda davlat budjetni qayta taqsimlash orqali ijtimoiy xarajatlarning anchagina qismini o'z bo'yniga oladi. Bu davlatlar o'z fuqarolarining ijtimoiy farovonligi, ta'lim, sog'liqni saqlash sohalariga, bolalar va yoshlarga, keksalarga ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish uchun mas'ul bo'ladi. Bu faoliyat davlat budjeti va ijtimoiy sug'urta jamg'armalari tomonidan moliyalashtiriladi. Bu ishlarni tashkil etish va muvofiqlashtirish asosan munitsipalitetlar, ya'ni mahalliy boshqaruv organlari tomonidan amalga oshiriladi.

Ikkinchidan, Germaniya, Avstriya, Belgiya va Fransiyada ijtimoiy davlatning kontinental modeli yuqori darajada rivojlangan. Bu davlatlarda davlat asosan aholining muhtoj qismiga ijtimoiy yordam pullarini berishga mas'ul hisoblanadi. Lekin aholiga davlat ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish bilan shug'ullanmaydi. Ijtimoiy xarajatlar davlat va xususiy ijtimoiy sug'urta jamg'armalari tomonidan qoplanadi. Ya'ni ijtimoiy ta'minot budjetdan ajratiladigan mablag'lar hamda ish beruvchi va xodimlarning sug'urta badallaridan ta'minlanadi. Shunday qilib, Skandinaviya, Kontinental, Amerika-Britaniya modellari bo'yicha ijtimoiy davlatlarda, liberal davlatlarda davlat tomonidan ijtimoiy xarajatlarga minimal mablag'lar ajratiladi, bir vaqtning o'zida ijtimoiy yordamga muhtojlar har tomonlama o'rganiladi. Bajarilgan ish hamda tadbirkorlik bilan shug'ullanish natijasida olinadigan har tomonlama

kafolatlangan daromad fuqarolarning ijtimoiy farovonligini ta'minlashning asosiy manbai hisoblanadi.

Ijtimoiy davlatning sotsial-demokratik turi Skandinaviya turiga mos keladi. Bu yerda moddiy ne'matlarni aholi orasida qayta taqsimlash va ijtimoiy ehtiyojga zarur xarajatlarda davlatning ustunligi mavjud. Ushbu jarayon davlat tashkilotlari, jamoat tashkilotlari, ommaviy axborot vositalari, nodavlat notijorat tashkilotlar tomonidan kuchli jamoatchilik nazorati asosida kuzatiladi. Shuningdek, jarayonning borishi, samaradorlikni aniqlash, vujudga kelayotgan muammolarni o'z vaqtida aniqlash va zarur qarorlar qabul qilish uchun tizimli monitoring va tahlil qilib borishning mustaqil tizimi yo'lga qo'yilgan. Ijtimoiy davlatchilik Osiyo davlatlarida – Yaponiya, Janubiy Koreya, Tayvanda ham rivojlanib bormoqda. Ijtimoiy davlatchilik bugungi kunda O'zbekistonda ham jadal sur'atlarda rivojlanib, o'ziga xos yutuqlari bilan fuqarolarimizning turmush tarzida namoyon bo'lib bormoqda. Eng quvonarli holat shundaki, endilikda ijtimoiy davlat tushunchasi Yangi O'zbekistonning yangi Konstitutsiyasida ham mustahkamlab qo'yildi. 1-modda "O'zbekiston – boshqaruvning respublika shakliga ega bo'lgan suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlatdir".⁴

Tahlil va natijalar. So'nggi yillarda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlarga e'tibor qaratadigan bo'lsak, ularning aksariyati ijtimoiy sohaga yo'naltirilganini ko'rishimiz mumkin. Xususan, aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj hamda ehtiyojmand qatlamlarini qo'llab-quvvatlash va ularga davlat tomonidan kafolatlar tizimi orqali yordam ko'rsatish yo'lga qo'yilgan. Odamlarning farovon va hayotdan rozi bo'lib turmush kechirishi uchun munosib sharoit yaratish, bandlikni ta'minlash va daromadini oshirish, ishsizlik va kambag'allikni qisqartirish, turmush sharoiti va sifati jihatidan tabaqalanishga yo'l qo'ymaslik kabi masalalarga davlat siyosati darajasida alohida e'tibor qaratilmoqda.

⁴ O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi to'g'risidagi Qonuni // Xalq so'zi, 2023-yil 2-may, №87-88 (8430-8431).

Ishsizlikdan himoyalaniş, kafolatlangan sifatli ta'lim berish, malakali tibbiy yordam ko'rsatish, bolalar, ayollar, qariyalar, nogironligi bo'lgan shaxslarni, migrantlar va ularning oila a'zolarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash davlatimizning doimiy diqqat markazida. Davlat budjetining asosiy qismi aynan shu kabi masalalarga yo'naltirilayotgani ham fikrimizning amaliy tasdig'idir. Alohida ta'kidlash joizki, ijtimoiy yordamga muhtoj bo'lgan oilalar, ayollar va yoshlarni qo'llab-quvvatlash uchun respublika miqyosida joriy etilgan "Temir daftar", "Ayollar daftari", "Yoshlar daftari" va "Mahallabay" ishlash tizimi ham ijtimoiy davlatning mohiyatini va hayotiy ko'rinishini namoyon etmoqda.

2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasida belgilangan vazifalar ham mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarning mantiqiy davomi hisoblanadi. Misol uchun, uning "Adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, inson kapitalini rivojlantirish" nomli to'rtinchi ustuvor yo'nalishida ijtimoiy davlat negizini tashkil etuvchi masalalarga alohida e'tibor qaratilgan. Jumladan, 43-maqсад bevosita har bir inson uchun munosib sharoit yaratish va turmush darajasini muntazam yaxshilab borishga yo'naltirilgan.

Tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, iqtisodiy yo'nalishdan keyingi eng yirik ijtimoiy yo'nalish bo'lib, davlat dasturining 154–235 bandlarini o'zida qamrab olgan. Mazkur bandlarda Taraqqiyot strategiyasining 33 maqsadini hayotga izchil tatbiq etish va amalga oshirish nazarda tutilgan. Umuman olganda, mamlakatimizda olib borilayotgan keng ko'lamlı islohotlar "Inson qadri uchun" tamoyili asosida aholi turmush darajasini yaxshilash, ularning farovon hayot kechirishi uchun zarur bo'lgan barcha shart-sharoit hamda qulayliklarni yaratishga qaratilgan. Bu xayrli ishlar "Avval – inson, keyin – jamiyat va davlat", degan ezgu g'oyani ro'yobga chiqarish, xalqimizni rozi qilish, erkin va farovon jamiyat barpo etishda muhim omil bo'ladi.

Demak, ijtimoiy davlat – ijtimoiy sohaga juda katta e'tibor qarata-digan, fuqarolarning tengligi, ularning turli tabaqalarga ajralishiga yo'l

qo'ymaydigan, umumfarovonlik ta'minlangan jamiyat yig'indisidir. Shu bois yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 1-moddasida: **“O'zbekiston – boshqaruvning respublika shakliga ega bo'lgan suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat”** deb belgilab qo'yilishi mamlakatimizda inson qadriga bo'lgan e'tiborning qonuniy mustahkamlab qo'yilganligiga yaqqol misoldir.⁵

Xulosa qilib aytganda, bizning bosh maqsadimiz Vatanimizni erkinlik, imkoniyatlar tengligi, adolat, birdamlik, ijtimoiy himoya va mas'uliyat prinsiplari hukmronlik qiladigan, Konstitutsiya va qonunlarning ustuvorligi so'zsiz ta'minlangan, insonlarning keskin tabaqlanishiga yo'l qo'yilmaydigan va barcha aholi qatlami uchun munosib hayot sharoiti yaratilgan, kuchli **“huquqiy-ijtimoiy davlat”** sifatida rivojlangan davlatlar qatoriga qo'shilishi yo'lida xizmat qilishdir.

Ijtimoiy sohani rivojlantirishga yo'naltirilgan aholi bandligi va real daromadlarini izchil oshirib borish, ijtimoiy himoyasi va sog'liqni saqlash tizimini takomillashtirish, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish ya'ni, gender tenglikni ta'minlash, arzon uy-joylar barpo etish, yo'l-transport, muhandislik-kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilmalarni rivojlantirish hamda modernizatsiya qilish bo'yicha maqsadli dasturlarni amalga oshirish, ta'lim, madaniyat, ilm-fan, adabiyot, san'at va sport sohalarini rivojlantirish, yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirishdan iborat. Zero, hayot – hamisha harakatda. Uni bir zum to'xtatib turish yoki tarix g'ildiragini orqaga aylantirishning aslo iloji yo'q. Jamiyat doimo oldinga intilaverar ekan, u bilan birga ong ham tinimsiz o'zgarib, rivojlanib boraveradi. Har bir amalga oshirilayotgan islohotlar negizida esa inson manfaatlari yotadi. Shunday ekan, o'zgarishlar mohiyati ham shaxs, uning manfaatlari bilan bevosita bog'liq, islohotlar mas'uliyati ham to'g'ridan to'g'ri fuqaro zimmasiga tushadi. Demak, kuchli ijtimoiy himoya doimo mustaqil O'zbekiston davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib qolmog'i lozim.

⁵ <https://lex.uz/docs/6445145>

I BOB. Yangi O‘zbekistonda barqaror taraqqiyot strategiyasining pragmatik va faol siyosati

O‘zbekistonning zamonaviy tashqi siyosati faol, tashabbuskor va pragmatik tashqi siyosiy kurs olib borishni hamda yuzaga kelayotgan xavf-xatarlarga o‘z vaqtida va adekvat javob choralari orqali yechishni talab etadigan XXI asrning o‘ta shiddat bilan o‘zgarib borayotgan xalqaro-siyosiy voqeliklarini inobatga olgan holda qurilmoqda.

Shavkat Mirziyoyev

Ma'lumki, davlat va jamiyat taraqqiyotini ta'minlashda azaldan o'z isbotini topgan ichki va tashqi siyosat uyg'unligidir. Zero, bugungi globallashtirish jarayonida hech bir davlat va jamiyat faol tashqi siyosat yurgazmasdan o'z maqsadiga erisha olmaydi. Shu ma'noda har qanday suveren davlat jahon hamjamiyatiga o'zining tashqi siyosiy qarashlari, umumplanetar muammolarga munosabatlari hamda azaliy munozaralar va muzokaralar obyektiga bo'lgan urush va tinchlik masalalariga yondashuvlari bilan kirib boradi.

Tabiiyki, 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston Taraqqiyot strategiyasi 7 ta yo'nalish va 100 ta maqsaddan tashkil topgan. 2022-yilda strategiyani amalga oshirishga oid Davlat dasturi doirasidagi tadbirlarga 55 trln so'm va 11,7 mlrd dollar ajratiladi.

Ushbu Strategiyaning yettinchi yo'nalishi O'zbekiston xavfsizligi va mudofaa salohiyatini kuchaytirish, ochiq, pragmatik va faol tashqi siyosat olib borish bilan aloqador jihatlarni o'z ichiga olgan bo'lib unga ko'ra 11 maqsadni amalga oshirish vazifalari belgilangan. Unga ko'ra fuqarolarning axborot olish va tarqatish erkinligi borasidagi huquqlarini yanada mustahkamlash, davlatning mudofaa qobiliyatini yanada mustahkamlash, Qurolli Kuchlarning jangovar shayligini, uning imkoniyatlari va qobiliyatini kuchaytirish, harbiy xizmatchilar, ularning

oila a'zolarining ijtimoiy himoyasini har tomonlama kuchaytirish hamda favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bartaraf etishning samarali tizimini yaratish kabi jihatlar o'z ifodasini topgan. Xususan, mamlakatning xalqaro munosabatlardagi teng huquqli subyekt sifatidagi rolini oshirish, Markaziy Osiyoda xavfsizlik, savdo-iqtisodiy, suv, energetika, transport va madaniy-gumanitar sohalardagi yaqin hamkorlikni sifat jihatidan yuqori bosqichga olib chiqish, an'anaviy hamkorlar bilan munosabatlarni yanada rivojlantirish, tashqi aloqalar geografiyasini kengaytirishga ustuvor ahamiyat qaratib, iqtisodiy diplomatiyani kuchaytirish hamda O'zbekistonning Birlashgan Millatlar Tashkiloti organlari va institutlari, global va mintaqaviy iqtisodiy, moliyaviy va gumanitar tashkilotlardagi faoliyatini kuchaytirishga alohida e'tibor qaratilgan. Bugungi kunda tashqi iqtisodiy aloqalar yo'nalishida Jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lish va Yevroosiyo Iqtisodiy Ittifoqi bilan integratsiya jarayonlarini chuqurlashtirish, jahon hamjamiyatida mamlakat imijini oshirishga qaratilgan axborotlar yetkazish samaradorligini oshirish hamda tashqi siyosiy va tashqi iqtisodiy faoliyatning normativ-huquqiy bazasini hamda xalqaro hamkorlikning shartnomaviy-huquqiy asoslarini takomillashtirish ushbu yettinchi yo'nalishning mazmun-mohiyatini tashkil etadi⁶.

Ma'lumki, bu borada O'zbekiston o'z mustaqilligining dastlabki kunlaridanoq aniq siyosiy pozitsiyasini va tashqi siyosat borasidagi Konsepsiyasini bayon etdi. Jumladan, Yangi O'zbekistonning Konstitutsiyasining 17 va 18 moddalarida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi O'zbekistonning tashqi siyosatini qonun bilan kafolatlab berdi. Uning 17-moddasida O'zbekiston Respublikasi xalqaro munosabatlarning to'la huquqli subyektidir. O'zbekistonning tashqi siyosati davlatlarning suveren tengligi, kuch ishlatmaslik yoki kuch bilan tahdid qilmaslik, chegaralarning buzilmasligi, davlatlarning hududiy yaxlitligi, nizolarni tinch yo'l bilan hal etish, boshqa davlatlarning ichki ishlariga

⁶100-maqсад: O'zbekiston Respublikasining xorijdagi diplomatik vakolatxonalari va konsullik muassasalari tomonidan O'zbekistonning chet ellardagi fuqarolariga xizmat ko'rsatish tizimini takomillashtirish. «Gazeta.uz» 10 838#taraqqiyot strategiyasi #yangi o'zbekiston

aralashmaslik prinsiplariga hamda xalqaro huquqning umume'tirof etilgan boshqa prinsiplari va normalariga asoslanadi. Shuningdek, 18-moddasida O'zbekiston Respublikasi davlatlar va xalqaro tashkilotlar bilan ikki va ko'p tomonlama munosabatlarni har taraflama rivojlantirishga qaratilgan tinchliksevar tashqi siyosatni amalga oshiradi.

O'zbekiston Respublikasi davlatning, xalqning oliy manfaatlaridan, uning farovonligi va xavfsizligidan kelib chiqqan holda ittifoqlar tuzishi, hamdo'stliklarga va boshqa davlatlararo tuzilmalarga kirishi hamda ulardan chiqishi mumkin. Darhaqiqat, O'zbekiston – tinchliksevar yurt. Boshqa mamlakatlar bilan do'stona, iliq munosabatli aloqalarni o'rnatish esa xalq farovonligi va mamlakat tinchligining eng muhim shartlaridan biridir. Konstitutsiyaga tashqi siyosat bo'yicha alohida moddalarga qo'shimchalar kiritishning zarurati ham ana shunda – tahlikali davrda barcha davlatlar bilan do'stona va tinchliksevar munosabatlarni o'rnatish juda muhimligiga urg'u berilgan.

Ma'lumki, mustaqillikning o'tgan 31 yillik davrida O'zbekiston chindan ham jahon hamjamiyatining eng siyosiy faol, xalqaro munosabatlarda o'zini asosli, qat'iy va o'zgarmas pozitsiyasiga ega bo'lgan davlat sifatida namoyon qildi. Bu O'zbekistonning jahon hamjamiyatidagi siyosiy mavqei va imijini belgilab beradigan muhim omil sifatida o'z kuch-qudratini ko'rsatdi.

Vaqt o'tgan sari umumdunyoviy siyosiy jarayonlar tobora faollashmoqda, yangidan-yangi muammolar davlatlararo, mintaqalararo va umumplanetar miqyosda butunlay yangicha yondashuvlarni, siyosiy qarashlarni taqozo etmoqda. O'zbekiston ana shu umumsayyoraviy jarayonlarda, xalqaro munosabatlar va tashqi siyosatda o'zining zamonaviy qarashlari va muammolar yechimini topishdagi o'ziga xos yondashuvlari bilan o'zini keng imkoniyatlarini namoyon etmoqda.

O'zbekistonning zamonaviy tashqi siyosati faol, tashabbuskor va pragmatik tashqi siyosiy kurs olib borishni hamda yuzaga kelayotgan xavf-xatarlarga o'z vaqtida va adekvat javob choralari orqali yechishni talab etadigan XXI asrning o'ta shiddat bilan o'zgarib borayotgan xalqaro-siyosiy voqeliklarini inobatga olgan holda qurilmoqda.

Mamlakatning xalqaro munosabatlarini to'laqonli subyekti sifatidagi o'rni va rolini yanada kuchaytirishdan hamda milliy va mintaqaviy xavfsizlikni ta'minlash, mamlakat iqtisodining barqaror va tez sur'atlar bilan o'sishi, uning ochiq demokratik davlat qurish yo'lidagi jadal siyosat olib borishi va rivojlangan davlatlar safidan o'rin olishi uchun eng qulay sharoitlarni yaratishdan iboratdir.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, Taraqqiyot Strategiyasida belgilangan tashqi siyosatning ustuvor yo'nalishlari Haraktlar Strategiyasida o'z ifodasini topgan jihatlarning mantig'i davomidir. Zero, O'zbekiston o'z tashqi siyosatida quyidagi prinsiplarga sodiq bo'lib qolmoqda:

o'zining milliy manfaatlariga asoslangan ochiq, pragmatik va puxta o'ylangan tashqi siyosat olib borish;

teng huquqlilik va o'zaro manfaatdorlik, suverenitetni, hududiy yaxlitlikni hurmat qilish, chegaralarning daxlsizligi va davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik, munozarali masalalarni tinch yo'l bilan hal etish, kuch ishlatmaslik yoki kuch bilan tahdid qilmaslik;

tashqi siyosiy faoliyat konsepsiyasiga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi davlatning, xalqning oliy manfaatlariga, uning farovonligi va xavfsizligiga, mamlakatni modernizatsiya qilishning ustuvor yo'nalishlariga, amaldagi milliy qonunchilik hamda qabul qilingan xalqaro majburiyatlarga amal qilgan holda ittifoqlar tuzish, hamdo'stliklarga va boshqa davlatlararo tuzilmalarga kirish, shuningdek ulardan chiqish huquqini o'zida saqlab qoladi.

O'zbekiston tinchliksevar siyosat yuritadi va harbiy-siyosiy bloklarda ishtirok etmaydi, har qanday davlatlararo tuzilmalar harbiy-siyosiy blokka aylangan taqdirda, ulardan chiqish huquqini o'zida saqlab qoladi. Davlatimiz rahbari o'z ma'ruzasida tashqi siyosat masalalariga ham alohida to'xtalib, bu borada Asosiy qonunimizga o'zgartirish va qo'shimchalar qilish vaqti yetib kelganligiga urg'u berdi va jumladan shunday dedi: «Mamlakatimiz va jahonda tub o'zgarishlar yuz berayotgan hozirgi sharoitda, O'zbekiston tashqi siyosatining konseptual-huquqiy asoslarini yangilash va takomillashtirish alohida dolzarb ahamiyat kasb etmoqda».

Zamonaviy siyosatshunoslik va xalqaro munosabatlarda «davlatning tashqi siyosati bu – ichki siyosatning davomidir» degan ibora mavjud. O‘zbekiston Respublikasi ichki siyosatidagi tinchlik va osoyishtalik, millatlararo totuvlik va inoqlikka erishish, taraqqiyot sari ildam qadam tashlash, bag‘rikenglik va bunyodkorlik, ilmu ma‘rifatga intilish va shu kabi ijobiy xislatlar, o‘z navbatida, tashqi siyosatda mintaqaviy xavfsizlik va barqarorlikka erishish, dunyoviy tinchlik va tartibotni, barqaror taraqqiyotni qo‘llab-quvvatlash, barcha davlatlar bilan o‘zaro teng va manfaatli hamkorlikni yo‘lga qo‘yish hamda mustahkamlash sifatida davom ettirilayotganligida namoyon bo‘ladi.

Mustaqillikka erishgandan buyon o‘tgan vaqt mobaynida O‘zbekiston faol va ochiq tashqi siyosat natijasida mintaqa mamlakatlari va jahondagi yetakchi davlatlar bilan munosabatlarini o‘rnatib, rivojlantirib bormoqda. Ayniqsa, so‘nggi besh yilda ushbu aloqalarimiz yanada mustahkamlanib, bir qator mamlakatlar bilan strategik sheriklik darajasiga qadar olib chiqilganini davlatimizning muvaffaqiyatli qadamlari sifatida baholash mumkin. Bu borada avvalo, Markaziy Osiyo mintaqasi miqyosida turli sohalarda qo‘shni mamlakatlar bilan mutlaqo yangi shaklda o‘rnatilgan doimiy aloqalar mintaqaviy barqarorlik mustahkamlanishiga hissa qo‘shmoqda hamda xavfsizlikka jiddiy tahdidlarning oldini olish uchun zamin yaratmoqda.

Yuqorida keltirilganidek, Asosiy qonunimizning IV bobi «Tashqi siyosat» deb nomlangan va yagona moddada mamlakatimiz tashqi siyosiy faoliyatining asosiy tamoyillari va o‘ziga xos jihatlari belgilab qo‘yilgan. O‘tgan yillar mobaynida O‘zbekiston Konstitutsiyamizdagi mazkur modda asosida o‘z tashqi siyosati va xalqaro aloqalarini yuritib keldi, jumladan, ushbu faoliyatning o‘ziga xos jihatlari to‘xtalib o‘tish maqsadga muvofiq bo‘lar edi.

Birinchiidan, mustaqillikni dastlabki yillarida qabul qilingan bir qator qonun va hujjatlarga tayangan holda O‘zbekiston Respublikasi o‘z tashqi faoliyatini umume‘tirof etilgan xalqaro huquq tamoyillariga tayangan va ularga qat‘iy rioya etgan holda olib bordi. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi xalqaro munosabatlarga kirishar ekan,

MUNDARIJA

Kirish.....	3
I BOB. Yangi O‘zbekistonda barqaror taraqqiyot strategiyasining pragmatik va faol siyosati	11
II BOB. Yangi O‘zbekiston – jadal rivojlanish va oxirgi yillardagi o‘zgarishlar sarhisobi	28
III BOB. Yangi O‘zbekistonda xotin-qizlar huquqiy savodxonligini oshirishning innovatsion psixologik texnologiyalari	57
IV BOB. Yangi O‘zbekiston Yevroosiyoning muhim transport – logistika xabiga aylanadi.....	62
V BOB. ShHT va “Samarqand ruhi” – hamkorlik va do‘stlik ifodasi	70
VI BOB. Shvetsiya va O‘zbekiston – Oliy ta’lim taraqqiyoti yo‘lida	78
VII BOB. Uchinchi Renessans yoxud xalqparvar davlatning nurli istiqboli: mezon va tamoyillari.....	88
VIII BOB. Yangi O‘zbekiston yoshlari – buyuk kelajak qalqonlari....	99
IX BOB. Jaloliddin Manguberdi – Xorazm saltanatining mard va vatanparvar o‘g‘li.....	108
X BOB. Yangilanayotgan O‘zbekiston sharoitida uyushmagan yoshlar bilan ishlashning zamonaviy xususiyatlari	112
XI BOB. Taraqqiyotning ikki ustuni: iqtisod va ma’naviyat.....	125
Foydalanilgan adabiyotlar	164

AZAMAT MUXTAROV

**YANGI O‘ZBEKISTON
TARAQQIYOT STRATEGIYASINING
MA’NAVIY-G‘OYAVIY ASOSLARI**

(Monografiya)

Toshkent – «Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi» – 2023

Muharrir:	S. Abdunabiyeva
Texnik	
muharrir:	M. Tursunov
Musavvir:	Sh. Zoxidova
Musahhih:	S. Muratova
Kompyuterda	
sahifalovchi:	Sh. Nurullayev

E-mail: nashr2019@inbox.ru. Tel.: +99899.920-90-35

№ 3226-275f-3128-7d30-5c28-4094-7907, 10.08.2020.

Bosishga ruxsat etildi 10.10.2023.

Bichimi 70x100 ¹/₁₆. «Times New Roman» garniturası.

Ofset bosma usulida bosildi.

Shartli bosma tabog‘i: 11,5. Nashriyot bosma tabog‘i 10,75.

Tiraji: 300. Buyurtma № 144-27.